

Koreys fuqarosi bilan turmushidan ajrashish kabi muammolardan qiynalayotgan Koreyada yashovchi chet elliklarga Seul oilaviy sudi yordam beradi!

1. Quyidagi shaxslarga chet elliklarga yuridik yordam ko'rsatuvchi advokat taqdim etiladi!

- Koreyada yashovchi chet ellik fuqaro yoki immigrant sifatida koreys tilini bilmaydigan shaxslar
- Sudda yutqazishi aniq bo'limgan shaxslar
- Advokat xarajatlarini to'lashga mablag'i yo'q shaxslar

2. Yuridik yordam ko'rsatuvchi advokat quyidagilarda yordam beradi!

- Yuridik yordam bo'yicha murojaat qilish va sudga ariza berish masalalari bo'yicha maslahat
- Yuridik yordamga ariza va da'vo arizasini to'ldirish va topshirish
- Yuridik yordamga ariza va da'vo arizasiga sud ko'rsatmasi yoki qarori bo'yicha o'zgartirish kiritish
- Advokat xizmatlari xarajatlarini to'lash bo'yicha to'liq qaror qabul qilingan holatda, sud jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlar

3. Yuridik yordam ko'lami qanday?

- Gerb yig'imi (da'vo arizasi, apellyatsiya arizasi va boshqalar)
- Advokat xizmati xarajatlari
- Boshqalar (Masalan: tarjimon, yozma tarjima kabi)
- Yuqoridagilar bilan bir qatorda barcha sud xarajatlari

4. Sud bilan bog'liq bo'limgan masalalarni ko'rib chiqish jarayoni bo'yicha ham yordam olishingiz mumkin!

Sud jarayoniga aloqasi bo'limgan oilaviy masalalarni ko'rib chiqish xarajatlarini to'lashga mablag'i bo'limgan yoki ushbu xarajatlar hayot darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar uchun gerb yig'imi, pochta xarajatlari, advokat xizmati, ekspertiza xarajatlari kabilarni to'lashda ariza yoki sud qarori orqali yordam beramiz.

5. Yuridik yordamga ariza berish bo'yicha qayerdan ma'lumot olsam bo'ladi?

Tashrif uchun manzil: Seul oilaviy sudi, qabulxona, fuqarolar murojaatlari bilan ishslash bo'limi, chet elliklar darchasi
Tel.: 02 - 2055 - 7165
Ish vaqt: Dushanba - Juma, 9:00 - 18:00